

GINKO BILOBA L O‘SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARAQALISHI VA AHAMIYATI

Karimova Mehribonu Otabek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda *Ginkgo biloba L.*ning botanik tavsifi, tarqalishi va ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *ginkgo biloba, mikrosporofill, spermatozoid, zigota.*

Аннотация. В данной тезис представлена подробная информация о ботаническом описании, распространении и значении *Ginkgo biloba L.*

Ключевые слова: *гинкго билоба, микроспорофилл, spermatozoid, zigota.*

Annotation. This thesis provides detailed information on the botanical description, distribution, and importance of *Ginkgo biloba L.*

Key words: *ginkgo biloba, microsporophyll, spermatozoon, zygote.*

Ginkgo biloba-balandligi 30 metrdan oshadigan, qishda bargini to'kadigan siyrak shox-shabbali daraxt. Barglari oddiy, uzun bandli, yaprog'i yelpig'ichsimon, ikki bo'lakli. Poyasining o'zak qismi kam taraqqiy etgan. Lekin kambiy va po'stloq parenximasi yaxshi rivojlangan. *Ginkgo*ning ignabargli daraxtlardan farqi shundaki, unda smola hosil bo'lmaydi.

Ginkgo-ikki uyli o'simlik. Qulay sharoitda *ginkgo* 20-30 yoshlarida chang yoki urug' bera boshlaydi. *Ginkgo*larda mikrostrombil va megastrombil qubbalar qisqargan shoxlarda joylashgan. Mikrostrombillari sirg'asimon, uning uchida mikrosporofillar spiral holda joylashgan.

*Ginkgo*simonlar ajdodi (sinfi) — *Ginkgoopsida*. Bu ajdodga o'tmishdan saqlanib kelayotgan bitta oila (*Ginkgodoshlar* — *Ginkgoaceae*) ga mansub bitta monotip relik tur (*Ginkgo biloba*) kiradi. *Ginkgodoshlar* oilasining 17 ga yaqin turkumlarining vakillari qazilma holda topilgan. Ular orasida eng qadimgisi — sfenobayeralar bo'lib, perm davriga oid qatlamlardan topilgan.

Tabiiy sharoitda *ginkgo* faqat Sharqiy Xitoyning Tyan-mu Shan tog'ida ozroq maydonda saqlanib qolgan. So'nggi paytlarda Xitoydan *ginkgo*ning ikkinchi turi topilganligi haqida ma'lumotlar bor. *Ginkgo* so'zi yapon tilidan olingan bo'lib, "kumushrang o'rik" yoki "kumushrang meva" degan ma'noni anglatadi. Yaponiya, Xitoy, Koreyada muqaddas daraxt sifatida ziyoratgoh joylarda, xiyobonlarda o'stirilgan. 1730-yillarda u G'arbiy Yevropaga, 1780-yillardan keyin esa Shimoliy Amerikaga keltirilgan. 1771-yilda K.Linney bu o'simlikka *Ginkgo biloba L.* deb ilmiy nom bergan. Ko'p

mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham 1920-yildan boshlab manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Dastlab Samarqandga 1870-yillarda keltirilgan.

Mikrosporofillari qisqa bandli, har bittasida 2 ta, ba'zan 3—4 ta mikrosporangiy (changdonlar) joylashgan. Mikrospoiangiylaida hosil bo'ladigan mikrosporalar (changlar) sagovniklarning mikrosporasiga o'xshaydi. Mikrosporaning o'sib, spermily gametofitga aylanishi mikrosporangiydan ajralib chiqmasdan avval uning ichida boradi. Tayyor mikrospora shamol yordamida tarqalib urug'kurtakka tushadi. Mikrospora bahorda urug'kurtakning chang kamerasiga tushgandan so'ng undan ikkita harakatchan spermatozoid hosil bo'ladi. Spermatozoid tuxum hujayrani urug'lantirgandan so'ng zigota, undan keyin murtak hosil bo'ladi. Urug'kurtakning integumentidan urug' po'sti hosil bo'lib, uning tashqipo'sti yumshoq etli qavatga aylanadi. Urug' murtagining taraqqiyoti ko'pincha urug' yerga to'kilgandan so'ng boradi. Bu jihatdan ginkgolar ham sagovniklarning taraqqiyotiga o'xshab ketadi. Ginkgoning urug'ida tinim davri bo'lmaydi. Ginkgolar uzoq umr ko'ruvchi daraxtlardan hisoblanadi. Xitoy, Koreya va Yaponiyada 1000 yoshdan ortiq tuplari bor.

Ginkgo (Ginkgo biloba) — ochiq urug'li o'simliklar bo'limining ginkgodoshlar oilasiga mansub hozirgi yagona vakili hisoblanadi. Daraxtning bo'yi 40 m gacha, diametri 1 m gacha; yosh niholi ba'zi nina bargli daraxtlarga o'xshab ketadi, ammo lekin borabora tashqi ko'rinishdan terak tusini oladi. Barglari bandli, yelpig'ichsimon, o'rtasida o'yig'i bor, kuzda to'kiladi. Ginkgo ikki uyli o'simlik, erkak va urg'ochi gullari kichikroq ko'chalarga to'plangan bo'ladi. Urug'i yumaloq, danakli mevaga o'xshaydi. Mevasi va urug'i yeyiladi. Janubiy Xitoyning ba'zi joylaridagina yovvoyi holda o'sadi. Qrimning janubida va Kavkazning Qora dengiz sohilida ekiladi.

O'rta Osiyoda ginkgoning barg va yog'och qoldiqlari yuqori perm va trias davriga tegishli yotqiziqlarda topilgan. Hududda ginkgoning 15 dan ortiq turi o'sgan. Jumladan 2 turi Janubiy O'zbekistonda, Tojikiston va Turkmanistonda o'sganligi aniqlangan. Ginkgoning bir qancha turlari Shimoliy O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va deyarli hamma davlatlarda yo'ra, bo'r va uchlamchi davr qatlamlaridan topilgan.

XX asr oxiriga kelib meditsina sohasida Ginkgodan xomashyo tayyorlanishi va uning sifati osha boshlagan. Ginkgo barglari uning xomashyosi hisoblanadi. Barg O'zbekiston sharoitida oktyabr oyidan sarg'ayib boradi. Lekin birinchi o'ta qattiq sovuq va izg'irin davrida daraxtdagi barglar sarg'ayadi. Qor tushishi bilan ular yerga to'kiladi. Ana shu barglar teriladi va quritgichlarda quritilib kraft qog'ozli qoplarda qoplanadi. Barg to'kilgandan so'ng daraxtlarning meva kosaklari shoxlarda qolib ketadi. Xomashyo sifatida uning meva kosaklaridan foydalaniladi. Bu meva kosaklar shoxlarda avtoko'tarmalar yordamida terib olinadi va meva etidan urug'lari ajratiladi. Meva eti

alohida va urug‘i alohida tayyorlov punktlariga topshiriladi. Natijada Genkgo mashhur preparatga aylandi.

Shunday qilib, Ginkgo urug‘i yordamida va qalamchasidan ko‘payadi. Ginkgo havosi ifloslangan joylarda ham bemalol o‘ saveradi va kasalliklarga chidamli. Shuning uchun uni manzarali o‘ simlik sifatida o‘ stirish maqsadga muvofiq. Urug‘ining tashqi yumshoq etli qavati iste‘ mol qilinadi. Filogenetik jihatdan ular kordaitlarga ancha yaqin turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘.Pratov, L.Shamsuliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, K.Ibodov, V.Mahmudov. Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika). Toshkent - 2006.
2. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev. “Dendrologiya”. Toshkent - 2012.
3. Botanika (o‘ quv qo‘ llanma). Toshkent - 2018.
4. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoir Rafiqova. Botanika asoslari (o‘ quv qo‘ llanma). Toshkent - 2009.
5. E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva. “Manzarali daraxtlarni ko‘ paytirish”. Toshkent - 2020.
6. “Gul va manzarali o‘ simliklar o‘ simliklar florasi va sistematikasi” uslubiy qo‘ llama. Namangan - 2022.
7. Bakhronova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations.
8. Saodat, I. Ko ‘k’ leksemasining etimologik tavsifi. O ‘zbekiston, 75.
9. Israilova, S. (2022). “Ko ‘k’ leksemasi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
10. Джалилова, С. М. (2024, November). Цветовые образы в испанском языке: этнолингвистические аспекты. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 150-151).
11. Shamahmudova, A., & Djalilova, S. (2024). Retracted: Discourse strategies of ecology and environment. In BIO Web of Conferences (Vol. 84, p. 04025). EDP Sciences.
12. Джалилова, С. М. (2024, November). Лингвокультурные особенности пословиц испанского языка. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 331-333).
13. Ядгарова, Г. И., Шакарова, Ф. Д., Калинина, О. Н., & Хосилова, Ф. Р. (2020). Роль речевых ситуаций в обучении иноязычной речи. Молодой ученый, (17), 155-157.